SHARQ TILLARI GRAMMATIKASINI O‘QITISHNING DIFFERENSIAL VA MULTIMODAL YONDASHUVLARI

Bobur Qurbonov,
SamDChTI, Yaqin sharq tillari kafedrasi mudiri
https://orcid.org/0000-0002-0822-6245
Tel: +998973970300
Hakan Keklik
Bursa Uludağ universiteti Turk tilini o‘qitish amaliyoti va ilmiy-tadqiqot markazi o‘qituvchisi
hakankeklik@uludag.edu.tr

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim muhitida arab, fors va turk tillari grammatikasini o‘qitishning differensial va multimodal yondashuvlari qiyosiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi turli ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun sharq tillari grammatik hodisalarini o‘zlashtirishni yengillashtiradigan samarali metodik yechimlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tahlil, qiyosiy-pedagogik yondashuv, modellashtirish va funksional-kommunikativ yondashuv usullaridan foydalanildi. Natijada arab tilida morfologik shablonlar, fors tilida konstruksiyaviy sxema, turk tilida esa morfemali segmentatsiya inklyuziv o‘qitishda ayniqsa samarali ekani aniqlandi. Shuningdek, vizual, audial, matnli va raqamli taqdim shakllarini birlashtirish grammatik materialni tushunish, mustahkamlash va nutqda qo‘llash samaradorligini oshirishi asoslandi. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv grammatika ta’limi mazmunni soddalashtirishga emas, balki uni taqdim etish va o‘zlashtirish usullarini boyitishga tayanishi lozim.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, sharq tillari, grammatika, arab tili, fors tili, turk tili, differensial yondashuv, multimodal o‘qitish, adaptiv metodika.

Аннотация

В статье проводится сравнительно-методический анализ дифференцированного и мультимодального подходов к обучению грамматике восточных языков в условиях инклюзивного образования. Цель исследования заключается в выявлении эффективных методических решений, облегчающих усвоение грамматических явлений арабского, персидского и турецкого языков обучающимися с различными образовательными потребностями. В работе использованы методы анализа, сравнительно-педагогического сопоставления, моделирования и функционально-коммуникативного подхода. В результате установлено, что при обучении арабскому языку особенно продуктивны морфологические шаблоны, при обучении персидскому - конструктивные схемы, а при обучении турецкому - морфемная сегментация. Обосновано, что объединение визуальных, аудиальных, текстовых и цифровых форм представления материала повышает доступность, осмысленность и практическую результативность усвоения грамматики. Сделан вывод о том, что инклюзивное обучение грамматике должно основываться не на упрощении содержания, а на вариативности способов его объяснения и закрепления.

Ключевые слова: инклюзивное образование, восточные языки, грамматика, арабский язык, персидский язык, турецкий язык, дифференцированный подход, мультимодальное обучение.

Abstract

This article presents a comparative methodological analysis of differentiated and multimodal approaches to teaching the grammar of Eastern languages in an inclusive educational environment. The aim of the study is to identify effective pedagogical solutions that facilitate the learning of grammatical phenomena in Arabic, Persian, and Turkish for students with diverse educational needs. The study is based on analysis, comparative pedagogical approach, modeling, and functional-communicative methodology. The results show that morphological patterns are especially effective in teaching Arabic grammar, structural schemes in Persian, and morphemic segmentation in Turkish. It is also demonstrated that the integration of visual, auditory, textual, and digital modes of presentation increases the accessibility, comprehension, and practical application of grammatical material. The article concludes that inclusive grammar instruction should rely not on simplifying content, but on diversifying the ways it is presented, practiced, and reinforced.

Keywords: inclusive education, Eastern languages, grammar teaching, Arabic, Persian, Turkish, differentiated approach, multimodal instruction.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuzivlik tamoyili faqat ijtimoiy adolat me’yori sifatida emas, balki ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim pedagogik shart sifatida ham qaralmoqda. Inklyuziv ta’lim muhitida har bir o‘quvchi, uning sensor, kognitiv yoki harakatga oid xususiyatlaridan qat’i nazar, ta’lim mazmuniga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Bu vazifa til ta’limida, ayniqsa grammatika bo‘limida yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki grammatik material tilning ichki qonuniyatlarini anglash, fikrni aniq ifodalash va nutqiy faoliyatni shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Sharq tillari grammatikasini inklyuziv muhitda o‘qitish masalasi alohida metodik yondashuvni talab qiladi. Arab tilida ildiz va vazn tizimi, o‘ngdan chapga yozuv, jins va son kategoriyalari, fe’l shakllarining murakkabligi markaziy o‘rin tutadi. Fors tilida izofa konstruksiyasi, grammatik bog‘lanishning o‘ziga xosligi va yozuv tizimi muhim. Turk tilida esa agglyutinativ qurilish, qo‘shimchalarning izchil ketma-ketligi va unlilar uyg‘unligi o‘quvchi uchun katta diqqat talab qiladi. Bu holat inklyuziv sinfda grammatik materialni bir xil usul bilan emas, balki o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos holda differensial va multimodal tarzda o‘qitish zarurligini ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, amaliyotda inklyuziv ta’limga oid umumiy pedagogik qarashlar shakllangan bo‘lsa-da, sharq tillari grammatikasini aynan inklyuziv muhitda o‘qitishga qaratilgan qiyosiy-metodik ishlanmalar hali yetarli darajada emas. Ko‘pchilik o‘quv qo‘llanmalar “o‘rtacha o‘quvchi” modeliga asoslangan bo‘lib, turli qabul qilish kanallari va ta’lim ehtiyojlarini hisobga olmaydi. Natijada grammatika formal qoidalar tizimi sifatida qabul qilinib, amaliy nutqiy vazifadan ajralib qolishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi inklyuziv ta’lim muhitida arab, fors va turk tillari grammatikasini o‘qitishda qo‘llaniladigan differensial va multimodal yondashuvlarni qiyosiy-metodik jihatdan tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi: sharq tillari grammatikasini o‘zlashtirishdagi asosiy to‘siqlarni aniqlash; differensial va multimodal usullarning imkoniyatlarini tahlil qilish; aniq til misollari orqali metodik

yechimlarni ko‘rsatish; raqamli vositalar va intellektual texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini baholash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Inklyuziv ta’lim sohasidagi nazariy qarashlar ta’lim mazmunini o‘quvchining individual xususiyatlariga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogikada differensial yondashuv, universal ta’lim dizayni, adaptiv ta’lim va multimodal o‘qitish kabi tushunchalar aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Til ta’limi metodikasida esa grammatik materialni funksional, kommunikativ va bosqichma-bosqich taqdim etishning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Ushbu tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega. Unda tahlil, qiyosiy-pedagogik yondashuv, modellashtirish va funksional-kommunikativ tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil usuli orqali inklyuziv ta’limga oid umumiy nazariy qoidalardan grammatika o‘qitish uchun ahamiyatli jihatlar ajratib olindi. Qiyosiy-pedagogik yondashuv yordamida arab, fors va turk tillaridagi bir-biriga o‘xshash va farqli grammatik hodisalarni inklyuziv muhitda qay tarzda o‘qitish mumkinligi solishtirildi. Modellashtirish usuli orqali esa turli ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun adaptiv mashqlar namunasi ishlab chiqildi. Funksional-kommunikativ tahlil grammatik shaklning nutqiy vazifasiga urg‘u berish imkonini yaratdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijasida inklyuziv auditoriyada sharq tillari grammatikasini o‘zlashtirishga xalaqit beruvchi bir qator omillar aniqlandi. Eshitishida qiyinchiligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun og‘zaki tushuntirishga ortiqcha tayanish yetarli samara bermaydi. Ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun esa jadval, grafik yoki mayda shriftli matnlarni qabul qilish qiyinchilik tug‘diradi. Harakat bilan bog‘liq cheklovlarda ko‘p hajmli yozma mashqlar noqulaylik keltirib chiqaradi. Kognitiv xususiyatlarga ega o‘quvchilarda esa abstrakt terminologiya va katta hajmli qoida bloklari materialni tushunishni sekinlashtiradi. Shu bois grammatik materialni quyidagi tamoyillar asosida adaptatsiya qilish maqsadga muvofiq deb topildi: qoidani kichik ma’noviy qismlarga ajratib berish; vizual-sxematik tayanchlardan foydalanish; bir xil qoidani turli shakllarda mustahkamlash; grammatik hodisani kommunikativ vazifa bilan bog‘lash. Bu yondashuv o‘quvchiga qoidani yodlash emas, anglash va qo‘llash imkonini beradi.

Arab tilida morfologik shablonlarga asoslangan vizual modellar ayniqsa samarali ekani aniqlandi. Masalan, كَتَبَ va يَكْتُبُ shakllarini o‘rgatishda ildiz harflarini bir rangda, zamonga doir ko‘rsatkichlarni boshqa rangda berish o‘quvchiga shakl va ma’no bog‘lanishini anglashda yordam beradi. Eshitishida qiyinchiligi bor o‘quvchilar uchun bu shakllar subtitrli video va yozma yo‘riqnoma bilan, ko‘rishda qiyinchiligi bor o‘quvchilar uchun esa kattalashtirilgan shrift va audio izoh orqali taqdim etilishi mumkin. Shu orqali grammatika qoida sifatida emas, balki ma’no ifodalovchi amaliy vosita sifatida o‘rgatiladi.

Fors tilida izofa konstruksiyasini o‘qitishda chiziqli sxema va tayyor konstruksiyaviy qoliplar samaradorligi kuzatildi. Masalan, kitobi donishчӯ, daftari talaba, xonai dӯst kabi birikmalar “predmet + bog‘lanish + egalik ma’nosi” modeli orqali tushuntirilganda, o‘quvchi grammatik munosabatni tezroq anglaydi. Kognitiv qiyinchiligi bor o‘quvchilar uchun bunday qoliplar ayniqsa muhim, chunki ular abstrakt ta’rifdan ko‘ra tayyor tuzilma orqali qoidani osonroq qabul qiladi. Zamon shakllarini o‘qitishda ham vaqt chizig‘i, rangli belgilar va audio namunadan bir vaqtda foydalanish ijobiy natija beradi.

Turk tilida agglyutinativ qurilishni tushuntirishda morfemali segmentatsiya eng samarali usullardan biri bo‘lib chiqdi. Masalan, evlerimde shakli ev + ler + im + de tarzida bosqichma-

bosqich tahlil qilinganda, o‘quvchi o‘zak, ko‘plik, egalik va joy ma’nosini alohida anglaydi. Bu usul, ayniqsa, qadamma-qadam tahlilga muhtoj o‘quvchilar uchun juda qulay. Qo‘shimchalarni alohida rang va ma’no bilan berish orqali grammatik shaklning ichki tuzilishi ko‘rinarli holga keladi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, arab tilida vizual-morfologik modellashtirish, fors tilida konstruksiyaviy sxemalashtirish, turk tilida esa morfemali segmentatsiya ustuvor natija berishi kuzatildi. Biroq ularni birlashtiruvchi umumiy jihat bor: barcha holatda grammatik materialni bir emas, bir nechta qabul qilish kanali orqali yetkazish zarur. Multimodal o‘qitishning mohiyati ham shunda. Differensial yondashuv esa o‘quvchining individual ehtiyojiga qarab bir maqsadga turli yo‘llar orqali yetish imkonini beradi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim xulosa shakllandi: inklyuziv muhitda grammatika murakkabligi muammo emas, asosiy masala uning qay tarzda tashkil etilganidir. Agar qoida faqat ta’rif va mashqlar orqali berilsa, ayrim o‘quvchilar ta’lim jarayonidan chetda qolishi mumkin. Aksincha, qoida vizual model, tayyor namuna, algoritmik yo‘riqnoma va kommunikativ vazifa bilan bog‘lansa, uning o‘zlashtirilishi ancha osonlashadi. Demak, muvaffaqiyatli grammatika ta’limi “qancha qoida berildi” degan mezon bilan emas, “o‘quvchi uni qanday tushundi va qo‘llay oldi” degan mezon bilan baholanishi lozim.

Raqamli vositalar va sun’iy intellekt elementlari ham inklyuziv grammatika ta’limida yordamchi vosita sifatida ahamiyatga ega. Elektron kartochkalar, ekran o‘quvchi dasturlar, avtomatik fikr-mulohaza platformalari, matnni ovozga aylantirish va yo‘riqnomani soddalashtiri sh kabi imkoniyatlar ta’limni individuallashtirishga yordam beradi. Biroq texnologiya o‘z-o‘zidan yechim emas; u metodik loyihalashtirish bilan uyg‘unlashgandagina samara beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari inklyuziv ta’lim muhitida sharq tillari grammatikasini o‘qitishda differensial va multimodal yondashuvlar zarur ekanini ko‘rsatdi. Arab, fors va turk tillari grammatik tizimi o‘ziga xos bo‘lsa-da, ularni o‘qitishda umumiy metodik tamoyil bir xil: grammatik materialni turli qabul qilish kanallariga mos tarzda taqdim etish, qoidani kichik ma’noviy qismlarga ajratish, uni amaliy nutq bilan bog‘lash va o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

Arab tilida morfologik shablonlar va rangli modellar, fors tilida konstruksiyaviy sxema va tayyor qoliplar, turk tilida esa morfemali segmentatsiya inklyuziv muhit uchun ayniqsa samarali usullar sifatida namoyon bo‘ldi. Bu usullar grammatik shaklni abstrakt qoida emas, balki tushunarli va qo‘llanarli ma’no birligiga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv grammatika ta’limi mazmunni kamaytirish emas, balki uni yetkazish, anglatish va mustahkamlash usullarini boyitishdir. Ana shu yondashuv orqali ta’lim jarayoni ham samarali, ham insonparvar, ham ilmiy asoslangan xususiyat kasb etadi.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Hornby, G. (2015). *Inclusive Special Education: Development of a New Theory for the Education of Children with Special Educational Needs and Disabilities*. New York: Springer.
2. Tomlinson, C. A. (2017). *How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms*. Alexandria, VA: ASCD.
3. Hall, T., Meyer, A., & Rose, D. (2012). *Universal Design for Learning in the Classroom: Practical Applications*. New York: Guilford Press.

4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2021). *How Languages Are Learned*. Oxford: Oxford University Press.
7. Ellis, R. (2008). *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford: Oxford University Press.
8. Nation, I. S. P., & Macalister, J. (2010). *Language Curriculum Design*. New York: Routledge.
9. Qurbonov, Bobur. "O‘ZBEK TILIDAGI FORSCHA O‘ZLASHMALAR XUSUSIDA" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 5, no. 3, 2025, pp. 450-455.
10. Gass, S. M., Behney, J., & Plonsky, L. (2020). *Second Language Acquisition: An Introductory Course*. New York: Routledge.